ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(5)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 98 sahifa,
26-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA SODERJANIE CONTENTS

MUNDARIJA

Informatika darslarida algoritmik topshiriqlar orqali 5–6-sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi 10
Muyassar Xodjiyeva Maxmudjanovna

Maktabgacha ta’limda matematikani o‘qitishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish 17
Samatova Xuvvaydo Rasulovna

Asliyat va fransuzcha tarjimalardagi toponimlarning struktur-grammatik modellari 22
Valijon Mamadjonov Alixanovich

“Tarbiya” darslarida raqamli hikoyalar orqali o‘quvchilarda halollik, mas’uliyat va mehr-oqibat fazilatlarini shakllantirish 26
Abdullayeva Surayyo Babojonovna

Kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning imkoniyatlari 32
Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda modellashtirishning o‘rni 37
Mamadaliyeva Marhabo Xolmamatovna

Raqamli keyslar asosida bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik profilaktik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish 43
Raximov Sardorbek Kabulovich

Teskari sinf modeli asosida amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlikni tashkil etish metodikasini takomillashtirish 48
Tursunbayeva Sevinch Normurod qizi, Saidov O‘tkirjon Mallayevich

Sinfni boshqarishdagi muammolar va ularning amaliy yechimlari 53
Xidirov Baxrom Dobilovich

Loyiha texnologiyasining lingvodidaktik asoslari 60
Muhammadaziz Omonov

O‘smirlarda egoizm psixodiagnostikasi 65
Karayeva Yulduz Xushbakovna

Oliy pedagogik ta’limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning integrativ yondashuvga asoslangan metodikasi 69
Jo‘rayev Shuxratbek Maxamadaliyevich

Inklyuziv ta’lim sharoitida logopedik yordamni tashkil etishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari 73
Azimova Dilnoza Sherzodovna

Talabalarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik omillari 76
Baxriyeva Nargiza Axmadovna

Bolalar adabiyoti vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy tanlov kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi 81
Duschanova Nilufar Sabirbayevna, Nurmetova Nazokat Baxtiyorovna

Nogiron farzandli onalarda psixologik farovonlikning himoya resurslari: nazariy-metodologik tahlil 86
Kasimova Xulkar Atabayevna

Intellektual rivojlanishida buzilishlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan korreksion-logopedik ishda vizual tayanchlar va muqobil kommunikatsiyani qo‘llash modeli 90
Raximova Dildora Saidbasitovna

Дети с комплексными нарушениями развития 93
Д. Т. Гапурова

INTELLEKTUAL RIVOJLANISHIDA BUZILISHLARI BO‘LGAN O‘QUVCHILAR BILAN KORREKSION-LOGOPEDIK ISHDA VIZUAL TAYANCHLAR VA MUQOBIL KOMMUNIKATSIYANI QO‘LLASH MODELI

Raximova Dildora Saidbasitovna
Alfraganus University, Ijtimoiy fanlar fakulteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: nigoraburxon@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada intellektual rivojlanishida buzilishlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan korreksion-logopedik ishni tashkil etishda vizual tayanchlar, muqobil va qo‘shimcha kommunikatsiya vositalarining o‘rni ilmiy-adabiy manbalar asosida tahlil qilinadi. O‘quvchi ehtiyojini aniqlash, vositani tanlash, kommunikativ sheriklarni o‘rgatish, tabiiy vaziyatlarda qo‘llash va monitoringni birlashtiruvchi besh bosqichli metodik model ishlab chiqildi. Model og‘zaki nutqni cheklash emas, bolaning muloqotga kirishish imkoniyatlarini kengaytirishni nazarda tutadi. Taklif etilgan bosqichlar nazariy-metodik konstruksiya bo‘lib, ular bo‘yicha empirik samaradorlik ko‘rsatkichlari keltirilmagan.

Kalit so‘zlar: intellektual rivojlanish buzilishi; korreksion-logopedik ish; vizual tayanch; muqobil kommunikatsiya; piktogramma; funksional muloqot; monitoring.

Abstract: This article analyzes the role of visual supports and augmentative and alternative communication (AAC) tools in organizing corrective speech therapy for students with intellectual developmental disabilities, based on scientific literature. A five-stage methodological model has been developed, integrating the identification of students' needs, selection of communication tools, training of communication partners, application in natural settings, and monitoring. The model aims not to restrict spoken language but to expand children's opportunities to engage in communication. The proposed stages constitute a theoretical and methodological framework, and no empirical indicators of their effectiveness are presented.

Key words: intellectual developmental disability; corrective speech therapy; visual support; alternative communication; pictogram; functional communication; monitoring.

Аннотация: В статье на основе научной литературы анализируется роль визуальных опор, средств альтернативной и дополнительной коммуникации в организации коррекционно-логопедической работы с учащимися с нарушениями интеллектуального развития. Разработана пятиэтапная методическая модель, объединяющая определение потребностей учащегося, выбор средств коммуникации, обучение коммуникативных партнёров, применение выбранных средств в естественных ситуациях и мониторинг. Модель предусматривает не ограничение устной речи, а расширение возможностей ребёнка для вступления в коммуникацию. Предложенные этапы представляют собой теоретико-методическую конструкцию, эмпирические показатели эффективности которой не приводятся.

Ключевые слова: нарушение интеллектуального развития; коррекционно-логопедическая работа; визуальная опора; альтернативная коммуникация; пиктограмма; функциональная коммуникация; мониторинг.

KIRISH

Intellektual rivojlanishida buzilishlari bo‘lgan bolalarda ayrim topshiriqlarni tushunish, voqealar ketma-ketligini saqlash va og‘zaki ko‘rsatmani qayta ishlash qiyin kechishi mumkin. Biroq muloqot ehtiyojini faqat so‘zlashuv nutqining mavjudligi bilan baholash to‘g‘ri emas: bola nigoh, imo-ishora, predmet tanlash, tasvir ko‘rsatish yoki ovozli qurilma yordamida ham ma’noli xabar uzatishi mumkin [1].

Oligofrenopedagogik faoliyatda vizual tayanchlar ko‘pincha mashg‘ulot tartibini ko‘rsatish, harakatlar ketma-ketligini tushuntirish va mustaqillikni qo‘llab-quvvatlash uchun xizmat qiladi. Logopedik amaliyotda

esa ular kommunikativ niyatni ifodalash, so‘zlarni faollashtirish, gap tuzish va suhbat navbatini tashkil etishda qo‘llanishi mumkin. Ikkala yo‘nalish uyg‘unlashganida o‘quv vazifasi va muloqot maqsadi bir muhitda amalga oshadi [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maqolaning maqsadi - intellektual rivojlanishida buzilishlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun vizual tayanchlar hamda muqobil kommunikatsiya vositalarini tanlash va amaliyotga kiritishga doir bosqichli metodik modelni ilmiy asoslash.

Ish nazariy-metodik tahlil usulida bajarildi. ASHAning intellektual rivojlanish buzilishi va muqobil kommunikatsiya bo‘yicha amaliy manbalari, Light, McNaughton va Caronning texnologik kommunikativ vositalar haqidagi sharhi, Snell va hammualliflarning kommunikativ aralashuvlarga oid tadqiqotlar sharhi hamda ICFning ishtirokka yo‘naltirilgan tamoyillari qiyosiy o‘rganildi [1-5].

Manbalar asosida o‘quvchi ehtiyojini baholash, mos vositani tanlash, kommunikativ vaziyat yaratish, sheriklarning ishtiroki va natijani kuzatish mezonlari guruhlandi. Tadqiqotda eksperimental guruh, nazorat guruhi yoki statistik tahlil mavjud emas; berilayotgan model keyingi amaliy sinovlar uchun metodik taklifdir.

Birinchi bosqich - **kommunikativ ehtiyojni aniqlash.** O‘quvchi uchun ahamiyatli xabarlar (masalan, “suv”, “yana”, “yordam bering”, “to‘xtating”, “men tanlayman”) ota-ona, o‘qituvchi va logoped kuzatuvlari asosida belgilanadi. Bir vaqtning o‘zida ko‘rish, eshitish, qo‘l harakati, diqqat, til va madaniy muhit omillari hisobga olinadi. Tanlov bolaning tashxisiga emas, real funksional ehtiyojiga tayangan bo‘lishi kerak [1].

Ikkinchi bosqich - **kommunikatsiya vositasini sinab tanlash.** Alohida so‘zli kartochka, fotosuratli tanlov taxtasi, predmet ramzi, mavzuli piktogramma yoki elektron ovoz chiqaruvchi vosita turli vaziyatlarda sinab ko‘riladi. Ekranli qurilma har doim ham oddiy kommunikativ jadvaldan samaraliroq emas: foydalilik foydalanish imkoniyati, lug‘atning mosligi, sheriklarning tayyorgarligi va bolaning mustaqil tanlov qila olishiga bog‘liq [2, 3].

Uchinchi bosqich - **modellash va birgalikdagi faoliyat.** Katta kishi faqat “to‘g‘ri ko‘rsat” deb talab qilmasdan, kundalik suhbat davomida o‘zi ham belgini ko‘rsatib, uning ma’nosini ovoz bilan aytadi. Masalan, didaktik o‘yinda bola kartochkadan “yana” belgisini tanlashidan avval pedagog shu belgidan tabiiy foydalanish namunalarini beradi. Xatoni jazolash o‘rniga qisman ko‘rsatma, kutish va ijobiy javob strategiyalari qo‘llanadi.

To‘rtinchi bosqich - **umumlashtirish.** Kartochka yoki piktogramma faqat logoped xonasida emas, sinf, o‘yin maydonchasi, oshxona va uyda ham qulay bo‘lishi zarur. Bir xil kommunikativ birlik turli sheriklar bilan mashq qilinadi. Snell va hammualliflar tahlil qilgan ishlarda natijaning keyingi muhitlarga ko‘chishi va saqlanishini tekshirish muhim metodologik talab sifatida ko‘riladi [4].

Beshinchi bosqich - **monitoring va moslashtirish.** Kuzatiladigan mezonlar: mustaqil kommunikativ tashabbuslar soni, qo‘shimcha ishorasiz xabar yetkazish ulushi, ikki va undan ortiq kommunikativ funksiyadan foydalanish, yangi sherik bilan belgi ishlatish, xabarni tushunish uchun kerak bo‘lgan yordam darajasi. Natijalar haftalik qayd etiladi; kerak bo‘lsa lug‘at, belgilar soni yoki joylashuvi qayta ko‘rib chiqiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Modelning ustun tomoni - texnik vositaning o‘zini emas, bolaning ijtimoiy ishtirokini maqsadga aylantirishidir. Masalan, 20 ta piktogramma nomini tanish faoliyatning faqat bir komponenti; o‘quvchi ulardan foydalanib sinfdoshiga murojaat qilmasa, kommunikatsiya vazifasi hali to‘liq bajarilmagan bo‘ladi. ICF mantiqiga muvofiq vositaning muvaffaqiyati shaxsiy imkoniyat va muhitdagi to‘siqlar o‘rtasidagi munosabat orqali baholanadi [5].

TAHLIL VA NATIJALAR

Muqobil va qo‘shimcha kommunikatsiya og‘zaki nutqni “almashtirish majburiyati” sifatida emas, o‘quvchiga mos kommunikatsiya yo‘llari majmuasi sifatida qaraladi. ASHA tavsiyalarida uni boshlash uchun muayyan yosh, aqliy ko‘rsatkich yoki avvalgi nutq malakasi majburiy shart emasligi qayd etilgan [2]. Shu bilan birga, og‘zaki nutq, imo-ishora va belgi tizimi birga qo‘llanishi mumkin; har bir bola uchun vosita kompleks baholash natijasida tanlanadi.

Pedagogik xatolarning oldini olish uchun uch xavfga e’tibor berish zarur. Birinchisi, bitta tayyor piktogramma to‘plamini barcha bolalarga bir xil tarzda tatbiq etish; ikkinchisi, foydalanishni faqat yakka mashg‘ulotga qamab qo‘yish; uchinchisi, muloqotning miqdorini hisoblab, bolaning xabar berish maqsadi va suhbatdagi tashabbusini chetda qoldirish. Modelni joriy etishdan avval mutaxassislarni o‘qitish va ota-onalar bilan foydalanish kelishuvini ishlab chiqish tavsiya etiladi [2, 6].

Mahalliy o‘zbek tilidagi kommunikativ materiallar ishlab chiqilganda so‘zning qo‘llanish chastotasi, bolaga tanish kundalik predmetlar, hududiy lug‘at, yozuv va belgining tushunarliligi hisobga olinadi. Belgilar ilmiy tashxis o‘rnini bosmaydi va o‘qituvchining individual pedagogik qarorini cheklamaydi.

1-jadval: **Taklif etilayotgan model bosqichlari**

Yo‘nalish/bosqich	Kuzatiladigan mazmun
Ehtiyojni baholash	Funksional xabarlar va sharoitlar aniqlanadi
Vosita tanlash	Kartochka, belgilar va elektron usullar sinab ko‘riladi
Modellash	Pedagog va logoped vositadan foydalanib namuna ko‘rsatadi
Umumlashtirish	Muloqot bir necha muhit va sherikda takrorlanadi
Monitoring	Mustaqil tashabbus, yordam miqdori va ishtirok kuzatiladi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Vizual tayanchlar va muqobil kommunikatsiyani korreksion-logopedik ishga kiritish uchun ehtiyojni baholash, mos vositani sinash, modellash, turli muhitlarga ko‘chirish va monitoringdan iborat besh bosqichli metodik model tavsiya etildi.

Oligofrenopedagog va logopedning birgalikdagi rejalashtirishi, sinf jamoasi hamda oila ishtiroki modelni amalga oshirishning muhim shartidir.

Keyingi bosqichda model samaradorligini real ta’lim muhitida sinovdan o‘tkazish, bolalarning kommunikativ tashabbusi va mustaqilligidagi o‘zgarishlarni ishonchli o‘lchash talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. American Speech-Language-Hearing Association. Intellectual Disability. ASHA Practice Portal. https://www.asha.org/practice-portal/clinical-topics/intellectual-disability/ (murojaat sanasi: 26.10.2026).
2. American Speech-Language-Hearing Association. Augmentative and Alternative Communication (AAC). ASHA Practice Portal. https://www.asha.org/practice-portal/professional-issues/augmentative-and-alternative-communication/
3. Light J., McNaughton D., Caron J. New and emerging AAC technology supports for children with complex communication needs and their communication partners: State of the science and future research directions. Augmentative and Alternative Communication. 2019;35(1):26-41. DOI: 10.1080/07434618.2018.1557251.
4. Snell M. E., Brady N., McLean L. va boshq. Twenty Years of Communication Intervention Research With Individuals Who Have Severe Intellectual and Developmental Disabilities. American Journal on Intellectual and Developmental Disabilities. 2010;115(5):364-380. DOI: 10.1352/1944-7558-115-5.364.
5. World Health Organization. International Classification of Functioning, Disability and Health (ICF). Geneva: WHO, 2001. https://www.who.int/classifications/international-classification-of-functioning-disability-and-health
6. United Nations. Convention on the Rights of Persons with Disabilities. Article 24: Education. https://www.un.org/development/desa/disabilities/convention-on%20the-rights-of-persons-with-disabilities/article-24-education.html

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.